


**PESHKU TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI  
AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**

*Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining  
150 yilligiga bag'ishlanadi.*

**TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING  
YO'LBOSHCHISI,  
MILLIY MA'RIFAT RAHNAMESI**



***KITOBXONGA ESDALIK***

*“Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, unga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, biroz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur, bas, bizg‘a tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur»*

Mahmudxo‘ja Behbudiy

Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan kitobxonga esdalik keng kitobxonlar ommasiga bag‘ishlanadi.

*Mahmudxo‘ja Behbudiy - buyuk ma‘rifatparvar, yozuvchi, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri.*

#### Tarjimai holi

U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785 yillar) Samarqandga kelib qolgan.

Oiladagi muhit undagi ma‘rifat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishning tezroq ro‘yobga chiqishiga imkon tug‘dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o‘z navbatida Mahmudxo‘jaga ta‘sir o‘tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so‘zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan “Hidoya” (“Islom huquqiga sharhlar”) asarining o‘z taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgan.

#### Faoliyati

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganib islom tarixi va nazariyasini bilan shug‘ullandi. U 1899-yilda hajga bordi va muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo‘ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar so‘zsiz uning dunyoqarashida burilish yasadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. O‘sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turdi.

Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasparinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan “Tarjumon” gazetasi M.Behbudiyini buyuk ma‘rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi.

Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo‘lgan kadetlar partiyasi a‘zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta‘siri ham katta bo‘lgan.

U 1914-yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to‘siqlarga uchrab “jadidlar rahnamosi”, “dahriy” deb e‘lon qilinadi. Shunga qaramay u tatar mutaffakiri Ismoil Gaspiralining ma‘rifatchilik borasidagi ta‘limotini qo‘llab quvvatlab, o‘z o‘lkasiga ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay ma‘rifatparvar sifatida o‘z xalqi hurmatiga sazovor bo‘ladi. U bir qator Sharq va G‘arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham bo‘lgan.

Albatta, Behbudiyning xalq o‘rtasida ortib borayotgan obro‘-e‘tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarining ham reja va niyatlariga zid edi. 1919-yilning 25-martida Behbudiy ular chaquvi bilan Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatli qilindi. Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin xabar qilinadi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: *“Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20-yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma‘rifat uchun kurashga chorlab keldi”.*

## Behbudiy – publitsist

U 1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnaliga asos soladi. Shuningdek, Behbudiy o‘zbek va fors tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, “Risolai asbobi savod”(“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy”(“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1903), “Kitob-ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1904), “Muxtarasi tarixi islom”-“Qisqacha islom tarixi”(1904). “Amaliyoti islom” (1905), “Rusiyaning qisqacha geografiyasi” (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Xurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Najot”, “Mehnatkashlar toyushi”, “Tirik so‘z”, “Vaqt”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiy parvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e‘tiborini qozongan.

Behbudiy - yozuvchi

Behbudiy adib sifatida “Padarkush” dramasi yaratgan. 1913-yilda Samarqand shahrida nashr etilgan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag‘al, xoh badavlat oilaga mansub bo‘lsin) ilmi, madaniyatli bo‘lishlari lozimligini qayd etgan.

M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, dastlab 1912-yilda “Turon” gazetasida bosilgan. 1911-yilga kelib kitob holda chop etilgan. Shundan so‘ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozitsion qurilishiga ko‘ra oddiy bo‘lgan holda mazmun-g‘oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi xarakter va shakl-shamoil mazkur janr talablariga ancha mos edi. Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o‘g‘li va uning gumashtalari bo‘lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlar asar g‘oyasini ochishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan bu asar o‘z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi, Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan.

Ulug‘ mutafakkirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e‘tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. 1977-yili allomaning “Saylanma” asarlari chop etildi. Asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko‘cha va mahallalar uning nomiga qo‘yildi. Buyuk ma‘rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o‘rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan ataladi. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag‘ishlangan film premyerasi bo‘lib o‘tdi. Xozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma‘rifiy meros o‘z xalqining istiqboliga xizmat etmoqda.

## Behbudiy asarlari:

Behbudiy, M. Tanlangan asarlar // Tuziluvchi, tuzatuvchi va izohlar: B. Kosimov. - [2-nashri, tuzatilgan va tuzilgan]. -T.: “Ma’naviyat”, 1999. - 280 b. (Istiqbol qahramonlari).

Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. [Matn]: asarlar 2- jild / M. Behbudiy; muharrir B. Karimov. - T.: “Akademnashr”, 2021. - 312 b.

XX asr o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyatining buyuk namoyandasi, millat qahramoni Maxmudx‘uja Behbudiy "Tanlangan asarlar"ining ushbu ikkinchi jildiga adabiy-tanqidiy va publitsistik maqolalari, safar xotiralari, xatlari, shuningdek, zamondoshlarining o‘zbek va rus tillaridagi esdaniq va ba’hiylovlarini kiritildi.

Ushbu nashr XX asrdagi milliy uyg‘onish davri tarixi va adabiyati bilan qiziquvchi muxassaslarni hamda keng kitobxonlarni ommasiga muvaffaq qilgan.

Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. [Matn]: asarlar 1 – jild / M. Behbudiy; muharrir

Б. Каримов. -Т.: “Академнашр”, 2021. – 512 б.

XX асрдаги миллий уйғонини даври адабиётининг буюк намояниси, миллат ходими Махмудхўжа Бехбудий «Танланган асарлар»инини ушбу биринчи жилдига адиб бадий ижоди намуналари, 1903 - 1918 йилларда эълон қилинган ижтимоий-сиёсий мақолалари, нутқлари киритилди.

Адиб таклиф этган сиёсий лойиҳалар, унинг маҳаллий ва «Ул-фат», «Таржимон», «Шўро» каби хорижий нашрларда босилган мақолалари, айрим архив материаллари илк бор эълон қилинмоқда.

Ушбу тўпلام XX аср ижтимоий-сиёсий ва адабий тафаккурининг шаклланиши, миллий уйғонини даври билан кизиқувчи мутахассис ҳамда кенг китобхонлар оmmasига мўлжалланган.

Бехбудий, М. Танланган асарлар. [Матн]: асарлар / М. Бехбудий; муҳаррир М. Исақова. -Т.: “Маънавият”, 1999. – 280 б.

Aziz kitobxon!" Qo'lingizdagi kitob nashriyotimizning dastlabki mahsulotidir. Uni yangi o'zbek maktabi, matbuoti, teatri beshigini tebratgan, 10-yillardayoq "Behbudiya nashriyoti"ni tashkil etib, darsliklar chiqarishni yo'lga qo'ygan buyuk ma'rifatchi bobomiz asarlaridan boshlamoqdamiz".

Bundan qariyb 10 yil avval yaxshi niyatlar bilan ish boshlagan "Ma'naviyat" nashriyotining ilk kitobidagi anotasiyaga ana shunday jumlar bitilgan edi. Kitobni katta ilxom va ishtiyoq bilan nashrga tayyorlagan marhum olimimiz Begali Qosimov "Istiqlol qahramonlari" rukni ostida milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namoyandalarining asarlarini chop etishda o'zining munosib hissasini qo'shdi. Bu olimning sa'y-harakatlari bilan mazkur ruknda o'n beshga yaqin kitob chop etildi, adabiyotimizning deyarli bo'shliqdek bo'lib yotgan jadidchilik davri ushbu nashrlar hisobiga baholiqudrat to'ldirildi.

Kitobxonlar ham bu asarlarni iliq kutib olishdi va ularga talab tobora ortib bormoqda. Ehtiyojlarni hisobga olib, alloma adibimiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Tanlangan asarlar"ining uchinchi nashrini e'tiboringizga havola etmoqdamiz."

Бехбудий, М. Танланган асарлар. -Т.: “Маънавият”, 2006. – 280 б.

Қўлингиздаги китоб нашриётимизнинг даслабки маҳсулотидир. Уни янги ўзбек мактаби, матбуоти, театри бешинини тебратган, 10-йиллардаёқ «Бехбудия нашриёти»ни ташкил этиб, дарсликлар чиқаришни йўлга қўйган буюк маърифатчи бобомиз асарларидан башламоқдамиз».

Бундан қарийб ўн йил аввал яхши ниятлар билан иш бошлаган «Маънавият» нашриётининг илк китобидagi аннотацияга ана шундай жумлалар битилган эди. Китобни катта илхом ва иштиёқ билан нашрга тайёрлаган марҳум олимимиз Бегали Қосимов «Истиқлол қахрамонлари» рукни остида миллий уйғонини даври ўзбек адабиёти намояндаларининг асарларини chop etishda ўзининг муносиб хиссасини қўшди. Бу олимнинг саъй-харақатлари билан мазкур рукнда ўн бешга яқин китоб chop etildi, адабиётимизнинг deyarli бўшлиқдек бўлиб ётган jadidchilik davri ушбу нашрлар хисобига baholiqudrat тўлдирилди. Китобхонлар ҳам бу асарларни илқ кутиб olishdi ва уларга талаб tobora ortib bormoqda. Китобхонларимизнинг ушбу эhtiyojini хисобга olib, alloma adibimiz Махмудхўжа Бехбудий «Танланган асарлар»ининг uchinchi nashrini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.

Бехбудий, М. Таъланган асарлар // Тўнловчи, сўзбоши ва изохлар: Б. Қосимов.— 3-нашри, тузатилган ва тўлдирилган.— Т.: «Маънавият», 2006.-280 б .- (Истиқлол қахрамонлари).

«Азиз китобхон! Қўлингиздаги китоб нашриётимизнинг дастлабки маҳсулотидир. Унинг янги ўзбек мактаби, матбуоти, театри бешинчи тебратган, 10-йиллардаёқ, «Бехбудия нашриёти»ни ташкил этиб, дареликлар чиқаришни йўлга қўйган буюк маърифатчи бобомиз асарларидан бошламоқдамиз\*. Бундан қарийб ўн йил аввал яхши ниятлар билан иш бошлаган «Маънавият» нашриётининг илк китобидаги аннотацияга ана шундай жумлалар битилган эди. Китобни катта илҳом ва иштиёқ билан нашрга тайёрлаган марҳум олимимиз Бегали Қосимов «Истиқлол қахрамонлари» руқни остида миллий уйғонини даври ўзбек адабиёти намояндalarининг асарларини чоп этишда ўзининг муносиб хисасини қўшди. Бу олимнинг саъй-ҳаракатлари билан мазкур руқда ўн бешта яқин китоб чоп этилди, адабиётимизнинг деярли бўшлиқдек бўлиб ётган жаидчилиқ даври ушбу нашрлар ҳисобига баҳолиқудрат тўлдирилди. Китобхонлар ҳам бу асарларни илқ, кутиб олдилди ва уларга талаб тобора ортиб бормоқда. Китобхонларимизнинг ушбу эҳтиёжини ҳисобга олиб, аллома адибимиз Махмудхўжа Бехбудий «Таъланган асарлар»нинг учинчи нашрини эътиборингизга ҳавола этмоқдамиз.

Abdurashidov, Z. Jadidlar. / Mahmudxo'ja Behbudiy [Matn]: risola. / Z. Abdurashidov. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2022. - 156 b.

“Jadidlar” to‘plami bu o‘zbek jadidehiligining 8 nafar yirik vakillarining hayoti, asarlari haqida kitobxonga qisqa ma‘lumot berib o‘tilgan kitoblar jamlanmasi bo‘lib uni endi elektron shaklda o‘qishingiz mumkin.

Mazkur to‘plamda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Is‘hoqxon to‘ra Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy kabi ma‘rifatparvar jadidlarning hayoti va ijodi, asarlarining qisqacha tahlili, e‘tirofi, hikmatli so‘zlari va boshqa jihatlari o‘rin olgan. Har bir kitobni tayyorlanishida jadidlar faoliyati bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar hamda professor - o‘qituvchilar jalb qilingan.

Axborot-bibliografiya xizmati